

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

## FERULA ASSA-FOETIDA NING TABOBATDA QO‘LLANILISHIGA DOIR

Nasriddinova M.R. – b.f.f.d. (PhD), Jo‘rayeva I. – talaba  
Qarshi davlat universiteti, e-mail: [m.nasriddinova@mail.ru](mailto:m.nasriddinova@mail.ru)

**Annotatsiya:** *Ferula assa-foetida* ning dorivorlik xususiyatlaridan xalq tabobatida qo‘llanishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirildi. Tibbiyotda asosan o‘simlikning ildizidan olinadigan yelim-smolasi keng ishlatilishi o‘rganildi.

**Kalitso‘zlar:** *Ferula assa-foetida*, ўсимлик, dorivor, tibbiyot, yelim-smola.

**Annotatsiya:** Приведена информация о лечебных свойствах *Ferula assa-foetida* и ее использовании в народной медицине. В медицине изучено широкое применение живицы-смола, которую добывают преимущественно из корня растения.

**Ключевые слова:** *Ferula assa-foetida*, растение, лекарственное, медицина, клей-смола.

**Annotatsiya:** Information is provided on the medicinal properties of *Ferula assa-foetida* and its use in folk medicine. In medicine, the widespread use of resin has been studied, which is extracted mainly from the root of the plant.

**Key words:** *Ferula assa-foetida*, plant, medicinal, medicine, glue-resin.

Keyingi yillarda dunyoda, jumladan respublikamizda ham farmatsevtika sanoatining jadallik bilan rivojlanishi farmatsevtika korxonalarida dorivor o‘simliklar xomashyosiga bo‘lgan talabni keskin ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shundan kelib chiqib, respublikamizda dorivor o‘simliklarislohotiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2018 yil 20 martdagi “Respublikada kavrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko‘paytirish hamda eksport qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3617 Qarori asosida kavrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash uyushmasi tashkil etilgan. Shu asosida kavrak dorivor o‘simligi maydonlarini kengaytirish, plantatsiyalar tashkil qilish, ularni qayta ishlashni rivojlantirish borasida ko‘p ishlar olib borilmoqda [1, 2].

Kavrak (*Ферула*) – ziradoshlar (soyabonguldoshlar) oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, yer yuzida 200 dan ortiq, O‘rta Osiyoda 114, O‘zbekistonda esa 60 dan ortiq turi uchraydi. Respublikamiz florasida uchrovchi turlardan 9 turi O‘zbekiston Qizil Kitobiga kiritilgan [2, 3, 4].

Kavrak turlari respublikamizning Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston respublikasi hududlarida, qumli cho‘llar, adirlar, tog‘lar va tog‘oldi yalangliklarda, sof tuproqli yerlarda o‘sadi. Mahalliy aholi kavrak turkumini har xil turlariga qarab sassiq kavrak, rova, ravshak, kamol, mo‘rcha kamol va boshqa nomlar bilan atashadi [2].

Tabiatda *Ferula assa-foetida* – sassiq kavrak keng tarqalgan bo‘lib, yelim-smola asosan shu turdan olinadi. O‘simlikning bo‘yi 1,5-2 m, ildizi yo‘g‘onligi 15 sm atrofida. Poyasi tik, ichi kovak, yuqori qismi shoxlangan, 8-9 yilda bir marotaba o‘sib chiqadi va gullaydi – monokarp. Ildiz oldi barglari bandli 3 bo‘lakli, poyadagilari maydaroq ketma-ket joylashgan.

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

Gullari murakkab soyabonga to‘plangan. To‘pguli yirik sharsimon diametri 20 sm, yon to‘pgullari maydaroq, erta bahorda gullaydi. Mevasi 2 bo‘lakli. Mart-aprel oylarida gullaydi, mevasi aprel-mayda pishib yetiladi.

*F. assa-foetidaning* foydali xususiyatlari qadimdan ma’lum bo‘lib, ilmiy manbalarda turli kasalliklarni davolashda dorivor mahsulot sifatida ildizi, bargi, po‘stlog‘i, guli, mevasi va boshqa qismlaridan tayyorlanadigan shirasi, kukuni, nastoykasi, emulsiyasidan foydalanish tavsiya etilgan. Asosan shirasi- ildizidan olinadigan yelimi-smolasi tibbiyotda keng ishlatiladi.

Abu Ali Ibn Sino o‘z davrida *F. assa-foetida*dan quyidagi kasalliklarni davolashda foydalangan: kavrak urug‘ining qaynatmasi 3 mahal 50 grammdan ichilsa, ona suti ko‘payadi. Shirasiga anjir qo‘shib yeyilsa, sariq (gepatit) kasalligini tuzatadi. Yelimiga murch, sirka qo‘shib, o‘tkir yaralarga surtsa, foyda qiladi. Soch to‘kilishiga juda foydali. Ibn Sino kavrakning buyrakdan tosh tushirish, psoriaz, ekzema, terini tozalash, jigarni tozalash xususiyatini alohida ta’kidlagan [5]. Kavrakning yelim-smolasi xalq tabobatida o‘pka sili, o‘lat, zahm, ko‘k-yo‘tal, tish og‘rig‘i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvvat beruvchi, balg‘am ko‘chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida qo‘llaniladi. Kavrak shirasi asosan jazavada (vasvasa), shuningdek ichakdan havoni haydovchi va balg‘am ko‘chiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Hamda og‘riq qoldiruvchi, tinchlantiruvchi, ichni suruvchi xususiyatiga ega [5, 6]. Ilmiy tibbiyotda kavrak yelim-smolasi – “*assafetida*” nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma (nastoyka) holida og‘riq qoldiruvchi, balg‘am ko‘chiruvchi, quvvat beruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Ko‘z kasalliklarida kataraktani boshlang‘ich bosqichlarini davolash, zaharli hasharotlar chaqqanda zahar ta’sirini kamaytirishda qo‘llaniladi. Asab tizimidagi buzilishlar va tutqanoqni davolashda juda samarali, tish og‘rig‘i, mushak bo‘g‘imdagi og‘riqlar, artrit, osteoxondrozda juda yaxshi natija beradi. Oshqozon-ichak yo‘lini shlaklar va gijjalardan tozalashda, boshqa kasalliklarni davolashda juda foydali. Eritmasi bilan og‘iz chayish uchun antiseptik va og‘riq qoldiruvchi, nafas yo‘llarini mikroblardan tozalashda, eritmasini ichish ovoz bo‘g‘ilishiga davo bo‘ladi [6].

Veterinariya tibbiyotida ichak va teri parazitlariga qarshi ishlatiladi.

Sharq tabobatida mastopatiya, bepushtlik, jinsiy ojizlikni davolashda ishlatilgan. Bundan tashqari, sharq mamlakatlari Eron, Pokiston, Afg‘oniston va Hindistonda kavrak shirasi va ildizi oziq-ovqat sanoatida ziravor sifatida, kosmetika sanoatida attorlik vositalari ishlab chiqarishda ishlatiladi [5, 6].

Yuqoridagilardan ma’lumki, *Ferula assa-foetida* juda yuqori dorivorlik xususiyatiga ega bo‘lib, ildizidan olingan yelim smolasidan xalq tabobatida va tibbiyotda keng ishlatiladi. Shuning uchun o‘simlikning tabiiy resuslarini asrash, himoya qilish, ularning dorivor xususiyatlarini saqlagan holda plantatsiyalarini yaratish, samarali ko‘paytirish usullari va muhofaza choralarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Shuningdek o‘simlikning tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

## **“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”**

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 martdagi “Respublikada kavrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko‘paytirish xamda eksport qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3617-sonli Qarori.
2. Раҳмонқулов У., Авалбоев О. Ўзбекистон ковраклари. –Тошкент, 2016. – 244 б.
3. Halkuzieva M.A., Rahmonkulov U. “Smola storage ferula tadshikorum m. pimen plantations storage for years”.The American Journal of Agricultere and biomedical engineering.Vol. 02. <http://usajournalshub.com/index.php/tajabe>
4. Ўзбекистон Республикасининг Қизил Китоби, 1 жилд: Ўсимликлар. –Тошкент, 2019. 87-96 б.
5. Абу Али Ибн Сино. Тиббий ўғитлар.–Тошкент, 1991. - 192 б.
6. Холматов Х.Х., Аҳмедов Ў.А. Фармакогнозия.–Тошкент, 1995. - 623 б.